

# **O'zbekistonga o'simlik yog'ini olib kirish qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi.**

Soliq kodeksiga qo'shimchalar kiritildi.

Unga ko'ra, 2021 yil 1 maydan 31 dekabrgacha quyidagilar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

O'zbekiston hududiga o'simlik yog'i, kungaboqar va zig'ir urug'i, shuningdek soya danagini olib kirish:

**O'simlik yog'ini (paxta yog'idan tashqari) ishlab chiqarish va (yoki) realizasiya qilish bo'yicha aylanma.**

2021 yil 1 maydan 31 dekabrgacha:

-ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan eksport bojxona bojlari kiritiladi;

-tadbirkorlarga o'zlari tomonidan import qilingan kungaboqar yog'i va kungaboqar urug'larini qayta ishlash natijasida olingan o'simlik yog'ining (TIF TN bo'yicha kodi 1512 11 – 1512 19) 50 foizdan oshmagan qismini eksport qilishga ruxsat beriladi.

**Manba O'RQ-689, 29.04.2021 yil.**